

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ UF3210484653

## 1. Loyihaning turi

Muborak tuman Maktabgacha ta'lim bo'limining Xo'jalik munosabatlariga oid, Pudrat shartnoma loyihasi yuzasidan quydagilarni,  
**ANIQLADIM:**

## 2. Loyihaning nomi

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi asosan, **"MEGA SAHOVAT OMAD"** MCHJ (tashkilot, korxonasi nomi) keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchirahbari O.K.Itolmasov (vazifasi, familiyasi, ismi) bir tomondan, Muborak tuman Maktabgachata'lim bo'limi (korxonasi, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" debyuritiladi, o'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbari SH.F. Ataeva (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

Shartnomaning umumiy narxi 200 001 030 (Ikki yuz million bir ming o'ttiz) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.

Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga olish to'g'risidagi shartnoma loyihasi,

## 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Muborak tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 29.04.2022-yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan. Yuqorida qayd etilganlarga va O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi asosan,

## XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblayman.

Markaz bosh  
yuriskonsulti



E.E.Abdirahmonov

2022-yil "05" may.

## ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ

2022 й. «5» 5

2022-5-4-64-MT-сон

Muborak tuman

ООО "MEGA SAHOVAT OMAD" (tashkilot, korxonona nomi) keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchirahbari O.K.Itolmasov (vazifasi, familiyasi, ismi) bir tomondan, Muborak tuman Maktabgachata'lim bo'limi (korxonona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" debyuritiladi, o'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbari SH.F. Ataeva (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

### 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan joriy ta'mirlash ishlarining ya'ni, shartnomaning umumiy narxi 200 001 030 (Ikki yuz million bir ming o'ttiz) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi "05" may 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti "05" iyun 2022 yil.

### 3. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi ko'rsatilgan avansni "Pudratchi" olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. "Buyurtmachi" tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida "Pudratchi"ga o'zi tomonidan harid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlash to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlash tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

### 4. TO'LOVLAR VA HISOB KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi 200 001 030 (Ikki yuz million bir ming o'ttiz) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchi"ga shartnoma narxining 30 % yoki 60 000 309 (Oltmish million uch yuz to'qqiz ming) so'm miqdorda oldindan to'laydi. Qolgan 70 % yoki 140 000 721 (Bir yuz qirq million yeti yuz yigirma bir) so'mni ya'ni, yakuniy to'lovni "Pudratchi" ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat f-2, f-3, yoki dalolatnoma taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

4.2. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

4.3. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan so'mmadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

### 5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma bahosi 200 001 030 (Ikki yuz million bir ming o'ttiz) so'm 00 tiyin bo'lgan Muborak tuman Sariq MFYda joylashgan 14-sonli DMTT binosini va isitish tizimini nuqson dalolatnomasi asosida tuzilgan smeta loyiha xujjatlariga asosan joriy ta'mirlash, ishlarini yuqorida kelishilgan muddatda tugatish.

5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.

5.3. Har oyning 30 sanasida joriy oyda bajarilgan ta'mirlash ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni "Buyurtmachi"ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to'laydi:

- ta'mirlash muddati 30 kunga kechiktirilsa, shartnoma bahosidan 0,2 % miqdorida;
- keyingi 30 kun uchun shartnoma bahosidan 0,2 % miqdorida;
- undan keyingi muddatlar uchun 5 % miqdorida;

Jarima sanksiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida 2-sonli dalolatnomani tuzadi.

## **6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

6.1. Shartnomada ko'rsatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, "Buyurtmachi" har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0 % miqdorida "Pudratchi"ga jarima to'laydi.

6.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma so'mmasiga muvofiq forma 2-3 va dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi

## **7. KAFOLATLAR**

Pudratchi:

7.1. Barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

Loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; O'zi tomonidan ta'mirlash uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob skunlari va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlashlarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; Ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; Ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

7.2. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga o'zaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning 4.1. bandida nazarda tutilgan kafolat so'mmasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

7.3. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning Ushbu masala bo'yicha ho'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi. Joriy ta'mirlash ishlari qabul qilib olish dalolatnomani imzolangan kundan boshlab kamida 3 uch oy etib belgilanadi.

## **8. TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH**

8.1. Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan ho'jalik sudlarida hal etiladi.

## **9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

9.1. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 122-moddasi 3-bandiga muvofiq tegishli tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin qonuniy kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

## **10. FORS MAJOR**

9.1. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 122-moddasi 3-bandiga muvofiq tegishli tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin qonuniy kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

## 10.FORS MAJOR

10.1. Aytib bo'lmaydigan, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar fors-major) tufayli raflarda bir shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

## 11.BOSHQA HOLATLAR.

11.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

## 12. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari

**"PUDRATCHI"**  
**OOO "MEGA SAHOVAT OMAD"**  
(ИЎҚОЧИНИНГ НОМИ)

Manzili: Muborak tuman  
Bank nomi: Toshkent sh TIF Milliy banki bosh ofisi  
MFO: 00 450  
INN: 301 544 886  
KUP: 20208000500718651001

Rahbar:  O.K.Itolmasov  
(Ф.И.Ш.)

**MEGA SAHOVAT OMAD**  
**SHARTNOMA VA HUJJATLAR UCHUN**  
M.O.

**"BUYURTMACHI"**  
**Muborak tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi**  
(Ijrochining nomi)

Manzili: Muborak tuman, Tong mahallasi  
Tel/faks: 67-22-4-00  
Byudjetdan mablag' oluvchi  
INN: 305 153 763  
SH/ir: 100022860102347091100251016

G'aznachilik bo'linmasi nomi:  
O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
Hr. 23 402 000 300 100 001 010  
Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh bosh boshqarmasi HKKM  
MFO: 00014 INN: 201 122 919

Rahbar:  SH.F. Ataeva  
(F.I.SH.)

M.O.

Shartnoma loyihasini qonun doirasida tuzilgan deb hisoblayman va tomonlarga uni imzolashni Tavsifa etaman.

YURIST: \_\_\_\_\_

Yurist viza qo'ygan sana " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ yil